



INNOVATIVE WORLD  
Ilmiy tadqiqotlar markazi

# YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI

2026/5



+998335668868



[www.innoworld.net](http://www.innoworld.net)

Google Scholar



zenodo





2026

**YANGI RENESSANS**

ILMIY JURNALI

3-JILD 5-SON



**YANGI RENESSANS**

ILMIY JURNALI  
**TO'PLAMI**

3 - JILD, 5 - SON  
2026



[www.innoworld.net](http://www.innoworld.net)

O'ZBEKISTON-2026

## **Agrokonsalting xizmatlari asosida bug‘doy yetishtirish samaradorligini oshirish yo‘llari**

**Turayeva Gulizahro**

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),

Guliston davlat universiteti dotsenti

ORCID: **0000-0002-5764-315X**

[zakhroturaeva@gmail.com](mailto:zakhroturaeva@gmail.com), **+998 94 585 19 84**

**Annotatsiya.** Qishloq xo‘jaligida samaradorlikni oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bug‘doy yetishtirish tarmog‘ida barqaror rivojlanishni ta‘minlashda agrokonsalting xizmatlarining o‘rni tobora ortib bormoqda.

**Kalit so‘zlar:** bug‘doy yetishtirish, raqamli texnologiyalar, innovatsion texnologiyalar, kompleks baholash, integral indeks,

**Kirish.** Hozirgi globallashtirish sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish va samaradorligini oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Jahon miqyosida aholining ortib borishi, iqlim o‘zgarishlari hamda tabiiy resurslarning cheklanganligi qishloq xo‘jaligida yangi yondashuvlarni joriy etishni talab etmoqda. Bug‘doy yetishtirish oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu tarmoqda samaradorlikni oshirish milliy iqtisodiyot barqaror rivojlanishining asosiy omillaridan biridir. Shu bilan birga, bug‘doy yetishtirish jarayonida mavjud muammolar, jumladan, resurslardan samarasiz foydalanish, ishlab chiqarish xarajatlarining ortib borishi va zamonaviy bilimlarning yetishmasligi ishlab chiqarish samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

**Asosiy qism.** Bug‘doy yetishtirish samaradorligini oshirishda agrokonsalting xizmatlari muhim omil sifatida namoyon bo‘lib, u ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarini ilmiy asosda tashkil etishga xizmat qiladi. Zamonaviy sharoitda qishloq xo‘jaligida resurslardan samarali foydalanish, hosildorlikni oshirish va tannarxni kamaytirish bevosita axborot-maslahat tizimining rivojlanganlik darajasiga bog‘liqdir. Agrokonsalting xizmatlari orqali fermer xo‘jaliklariga quyidagi yo‘nalishlarda amaliy yordam ko‘rsatiladi:

- ✓ agrotexnik tadbirlarni optimallashtirish (ekish muddati, urug‘ tanlash, o‘g‘itlash me‘yorlari);
- ✓ raqamli texnologiyalarni joriy etish (GIS, GPS, dron monitoringi, aqlli sug‘orish tizimlari);
- ✓ moliyaviy rejalashtirish va xarajatlarni boshqarish;
- ✓ bozor kon‘yunkturasini tahlil qilish va mahsulotni samarali sotish strategiyalarini ishlab chiqish.

Tadqiqot doirasida bug‘doy yetishtirish samaradorligini baholovchi asosiy ko‘rsatkichlar quyidagi guruhlariga ajratildi. (1-jadval)

## 1-jadval. Bug‘doy yetishtirish samaradorligini baholovchi asosiy ko‘rsatkichlar

Ko‘rsatkichlar guruhi	Asosiy indikatorlar
Ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari	Hosildorlik (s/ga), yalpi hosil (t), ekin maydoni (ga)
Iqtisodiy ko‘rsatkichlar	Tannarx (so‘m/t), foyda, rentabellik (%)
Resurs samaradorligi	Suv sarfi (m <sup>3</sup> /ga), mehnat unumdorligi, o‘g‘it samaradorligi
Innovatsion ko‘rsatkichlar	Raqamli texnologiyalar ulushi, innovatsion usullar qo‘llanish darajasi

Ushbu ko‘rsatkichlar asosida tahlil shuni ko‘rsatadiki, agrokonsalting xizmatlaridan foydalangan xo‘jaliklarda hosildorlik o‘rtacha 15–20 foizga oshgan, tannarx esa 10–12 foizga kamaygan. Bu esa resurslardan oqilona foydalanish va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish natijasidir. Agrokonsalting xizmatlari doirasida raqamli texnologiyalarni joriy etish alohida ahamiyatga ega. Masalan, dronlar yordamida ekin maydonlarini monitoring qilish, tuproq namligini aniqlash va kasalliklarni erta bosqichda aniqlash hosildorlikni sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, aqlli sug‘orish tizimlari orqali suv resurslaridan foydalanish samaradorligi 20–25 foizgacha yaxshilanadi.

**Xulosa va takliflar.** Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bug‘doy yetishtirish samaradorligini oshirishda agrokonsalting xizmatlari muhim strategik omil hisoblanadi. Ular orqali ishlab chiqarish jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etish, resurslardan oqilona foydalanish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish imkoniyati yaratiladi. Natijada hosildorlik oshadi, tannarx kamayadi va xo‘jaliklarning umumiy rentabelligi yaxshilanadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar olindi:

1. agrokonsalting xizmatlari qo‘llanilgan xo‘jaliklarda ishlab chiqarish samaradorligi sezilarli darajada yuqori bo‘ladi;
2. raqamli va innovatsion texnologiyalarni joriy etish resurs tejamkorligini ta‘minlaydi;

Mazkur xulosalardan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. qishloq xo‘jaligida agrokonsalting xizmatlarini institutsional jihatdan rivojlantirish va hududiy maslahat markazlari faoliyatini kengaytirish zarur.
2. bug‘doy yetishtirish jarayonida raqamli texnologiyalar (GIS, dronlar, aqlli sug‘orish)ni joriy etishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-5853. “Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi to‘g‘risida”. 2019 yil 23 oktyabr.
2. Aliyev Ya.E. (2020). Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, resurslari va xizmatlari bozorlarini rivojlantirish. Toshkent.



3. Turayeva, G. (2025, December). Innovation efficiency in the grain sector. In International Conference on Medicine & Agriculture (Vol. 1, No. 3, pp. 54-56).
4. Turayeva, G. (2025, December). Assessment of wheat production sustainability based on the principles of the “green economy”. In International Conference on Business & Management (Vol. 1, No. 3, pp. 53-55).
5. Abdurasulovna, K. I., Ergashevich, Y. K., & Abdukhalilovich, S. A. (2018). Horizons and challenges of the silver nanoparticles application in the practical medicine. *European science review*, (7-8), 122-127.
6. Kamilova, I. A., Pakhomova, J. E., & Nadjmutdinova, D. K. (2020). Analysis of the role of 1G/2G polymorphism in the MMP1 gene in the development and clinical course of cervical intraepithelial neoplasia. *European Journal of Molecular and Clinical Medicine*, 7(2), 850-859.
7. Dilbar, N., Iroda, K., & Umida, S. (2022). The role of molecular genetic markers in the clinical course of cervical intraepithelial neoplasia.
8. Kamilova, I., & Umarov, A. (2025). The Role of Lipid Peroxidation and Activity of The Blood Antioxidant System in The Development of Postpartum Endometritis and Their Prognostic Significance. *International Journal of Medical Sciences And Clinical Research*, 5(05), 96-104.
9. Abdurasulovna, K. I. (2021, October). Effect Of A Combination Of Polymorphic Locus Of Genes For Detoxification Of Enzymes Of Estrogen Metabolism In The Risk Of Cervical Neoplasia. In The 8th International scientific and practical conference “Results of modern scientific research and development”(October 17-19, 2021) Barca Academy Publishing, Madrid, Spain. 2021. 523 p. (p. 51).
10. Kamilova, I. A. (2020). Individual prediction of the development of cervical intraepithelial neoplasia in women to medical and social risk factors. *Toshkent tibbiyot akademiyasi axborotnomasi*, (1), 112-115.
11. Abdurasulovna, K. I., & Oybekovna, K. S. (2025). Predicting preeclampsia in early pregnancy. *France-scientific review of the problems and prospects of modern science and education*, 1(4), 23-26.
12. Kamilova, I. A. (2021). The role of the genetic polymorphism of the gene-oncosuppressor TP53 rs 17884159 in women with cervical intraepithelial neoplasia. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 2(3), 31-36.
13. Akhmadzhonova, G., Nazhmutdinova, D., Negmatshoeva, K., & Iroda, K. (2024). Assessment of the Microbial Flora of the Genital Tract and the Morphofunctional State of the Endometrium in Antiphospholipid Syndrome. *New Visions in Medicine and Medical Science Vol. 2*, 184-193.

